



O‘ZBEK SHE’RIYATIDA BAHOR RAMZI

Safarova Hamrooy Qahramon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti 3-bosqich
talabasi safarovahamrooy@gmail.com

Annotatsiya: Adabiyotda simvollar – bu muallifning murakkab g‘oyalarini, mavzularni, his-tuyg‘ularni yashirin va ramziy tarzda ifodalash uchun ishlatiladigan kuchli vositalardir. Simvollar asarlarga chuqurlik, ko‘p qatlamlilik va falsafiy ma’no kiritadi, o‘quvchini tafakkurga chorlaydi va asarning badiiy tasirini kuchaytiradi. Ushbu maqolada ramzlar o‘zbek she’riyatining tilini boyitishi va o‘quvchiga she’rni bir necha qatlamlarda tushunish imkoniyatini berishi haqida, ular orqali shoir jamiyat, tabiat va inson ruhining nozik tomonlarini badiiy ifodalashi haqida asosli ma’lumotlar keltirilib o‘tilgan. Ilmiy maqolada mumtoz adabiyot, XX asr she’riyati hamda zamonaviy adabiyot namunalaridan misollar keltirilib “bahor” ramziga atroflicha tahlil va tasniflar olib borilganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tafakkur, Cho‘lpon, shoir, jahon, unsur, lirik, epik, ijtimoiy, Zulfiya, Abdulla Oripov, ramz, timsol, Alisher Navoiy.

SYMBOL OF SPRING IN UZBEK POETRY

Annotation: In literature, symbols are powerful tools used to represent the author's complex ideas, themes, emotions in a hidden and symbolic way. The symbols introduce depth, multi-layered and philosophical meaning into the works, encourage the reader to contemplate and enhance the artistic impact of the work. This article provides reasonable information about the fact that symbols enrich the language of Uzbek poetry and give the reader the opportunity to understand poetry in several layers, through which the poet artistically expresses the subtleties of society, nature and the human soul. The scientific article provides examples of classical literature, poetry of the 20th century and modern literature, and provides detailed analysis and classifications of the “spring” symbol. **Keywords:** contemplation, Chulpan, poet, world, unsur, lyrical, epic, social, Zulfiya, Abdullah Oripov, Symbol, Symbol, Alisher Navoi.

СИМВОЛ ВЕСНЫ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация: В литературе символы – это мощные инструменты, используемые для неявного и символического выражения сложных идей, тем, чувств автора. Символы вносят в произведения глубину, многослойность и философский смысл, побуждая читателя задуматься и усиливая художественное воздействие произведения. В этой

статье представлена обоснованная информация о том, как символы обогащают язык узбекской поэзии и дают читателю возможность понять стихотворение в нескольких слоях, через которые поэт художественно выражает тонкости общества, природы и человеческого духа. В научной статье приведены примеры из классической литературы, поэзии XX века и современной литературы, проведен подробный анализ и классификация символа “весна”.

Ключевые слова: созерцание, Чулпан, поэт, мир, элемент, лирический, эпический, социальный, Зульфия, Абдулла Арипов, символ, эмблема, Алишер Навои.

KIRISH

Adabiyot – inson tafakkurini, o‘y-fikrlarini, hissiy kechinmalarini, yozuvchi, shoirning boshidan o‘tkazgan, o‘tkazmagan, his qila olgan hamda his eta olmaganlarini lirik va epik shaklda qog‘ozga tushirgan eng go‘zal kitobidir. Adabiyot nima bilan boyib boradi? Adabiyot, she‘riyatni qaysi unsurlar go‘zal va ta‘sirli qiladi?

Barchamizga ma‘lumki, barcha shoir, shoirlar o‘z lirikalarida tabiat manzaralarini asosan bosh obraz sifatida tasvirlashadi. Lirikada bahor mavzusining aks etishi va uning madaniy, falsafiy, va badiiy jihatlari haqida gap ketganda, bu mavzu o‘zbek va jahon adabiyotida keng qo‘llanilgan. Bahor tabiatning yangilanishi, hayotning qayta tug‘ilishi, go‘zallik, muhabbat va umid ramzi sifatida tasvirlanadi. Bundan tashqari, o‘zbek she‘riyatida bahor obrazi tabiatning yangilanishi, hayotning qayta tug‘ilishi, muhabbat, umid va ma‘naviy tiklanishning ramzi sifatida keng o‘rin egallagan. Bu mavzu o‘zbek shoirlarining ijodida turli jihatlarida — lirik, falsafiy, milliy va ijtimoiy mazmunlarda aks etgan. Bahor nafaqat fasl sifatida, balki inson ruhiyati, ijtimoiy hayot va abadiy qadriyatlar bilan bog‘liq holda tasvirlanadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

leksik-semantik, tavsifiy tahlil metodlaridan foydalanildi. O‘zbek shoir va shoirlarining she‘rlaridagi bahor ramzi morfologik, semantik va sintaktik tahlili amalga oshirildi.

NATIJALAR

O‘zbek shoirlari va yozuvchilari bahorni tabiatning yangilanishi, gullar va daraxtlarning qayta hayot topishi orqali inson ruhiyatidagi o‘zgarishlar, umid va orzu-umidlar bilan bog‘lab yozishgan. Masalan, Cho‘lponning “Bahorni sog‘indim, bahorni...” she‘rida “yangilik va ozodlik” ramzi sifatida kuylagan. Uning she‘rlarida bahor xalqning istiqloлга intilishi bilan uyg‘unlashgan.

Ko‘rganda yerlar, olamlar to‘la qorni.

Qor... qor

– Zaharli ninalar kabi

Ko‘zlarga qarab oqar...

Qaydasiz, qaydasiz
Latif siynalar kabi
Dalalarga singgan bahor?²⁰⁵

(Bahorni sog‘indim, bahorni... she’ridan)

Yuqorida keltirilgan misralar orqali shoir urg‘uni fasllarga berib asosiy g‘oyani keltiradi. Ya’ni, XIX – XX asrdagi bosqinchilik, qaramlik yurti zulmatga cho‘ktirayotgani, xalqni ko‘zidan, qalbidan qon oqizayotgan iztiroblarini qor ostiga yashirishga urinishlarini go‘zal tarzda tasvirlaydi. Bahor timsolida – istiqlo, erkinlik nazarda tutilgan bo‘lib, “Bahorni sog‘indim, bahorni...” jumllarida mustaqillikni sog‘inganini, xalq erkinlik qumsaganini bahor timsolida ifoda etadi. Guvohi bo‘lganimizdek, Cho‘lpon she’riyatida bahor – mustaqillik, erkinlik ramzini bildirar ekan.

Bahor faqat erkinlik, sevgi-muhabbat timsoli sifatida emas, balki ma’naviy tiklanish timsolida inson qalbinin tozalanishi, yaxshilik va adolat g‘oyalarining uyg‘onishi sifatida talqin qilinadi. Qishning qora, chirkin kunlaridan so‘ng, yangilanish, yasharish, poklikni tarannum etuvchi ramz sifatida aynan bahor timsol sifatida olinadi. Misol uchun Abdulla Oripov she’riyatida bahor ramzi ma’naviy poklik, tiriklik, go‘zal hayotni ifodalaydi. Shoir quyoshning haroratli nurlari erkalab uyg‘otayotgan tabiat timsolida tiriklik kuchining mislsiz qudratini, hayot go‘zalligini va yashash baxtini ko‘radi hamda olqishlaydi.

Yana bahor keldi, Yana olamda
Ajbib bir go‘zallik, ajbib bir hayot.
Men seni qutlayman shu ulug‘ damda,
Ulug‘ yelkadoshim, muzaffar hayot!²⁰⁶

(“Yana bahor keldi” she’ridan)

Abdulla Oripov qalamiga mansub bo‘lgan ushbu she’riy parchasida “bahor” tiriklik, go‘zallik, bayramona bir ko‘tarinki ruh bag‘ishlamoqda. Albatta, qay faslni olmaylik, qay ramzni olmaylik barchasida shoir, shoirlar o‘z iste’dodlari, baxti, ulug‘ligi, yashagan, yashamagan dardlari, og‘riqlaridan kelib chiqib ma’lum bir timsolni ifodalaydilar. Quyida esa Zulfiyaxonim Isroilovanning she’riy parchasida “bahor”ni Abdulla Oripovga qarama-qarshi tarzda go‘zallik, baxt timsolini emas, balki “hijron” va “sog‘inch”ni tasvirlaydi.

Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo‘shqin, zabardast.
O‘lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.²⁰⁷

(“Bahor keldi, seni so‘roqlab”)

²⁰⁵ Cho‘lpon, “Buloqlar qo‘ynida”, Toshkent, Cho‘lpon nomidagi ijodiy-matbaa uyi – 2007, 44-B

²⁰⁶ Abdulla Oripov, Tanlangan asarlar 1-jild, Toshkent- Adabiyot va san’at nashriyoti, 139.B

²⁰⁷ Zulfiya. “Bahor keldi, seni so‘roqlab”, Toshkent-“Yangi asr avlodi”, 2013, 28.B

Zulfiya she‘riyatida “bahor” ramzi ayollik g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi. U bahorni ona tabiat va ayollarning ijodiy kuchi bilan bog‘lab, ularning jamiyatdagi rolini ulug‘laydi. Yuqorida keltirilgan parchada ham ayni ayollik g‘oyalari – yor timsolini gavdalantirgan. Ya‘ni suyuqli kishisini garchi hayot bo‘lmasa-da, bahorga qiyoslab qaytgani, doimiy bahorda yashashi, yorisiz hatto u sevgan faslda nafas ham olmaganligini, yori nafas olmagan “bahor”dan u ham nafas olmagan, yori yashamagan “bahor”da shoiraning o‘zi ham ayni yashamaganligini sadoqati, xotirasi ila badiiy tasvirlagan. Shoiraning yana bir “bahor”ni tarannum etgan she‘rini tahlil qilamiz.

So‘lma, gulzor, so‘lganday umrim,
Yashagancha, yashnatgancha qol.
Balki gulga yosh to‘kib yum-yum,
O‘zni yashnoq sezmoq ham iqbol?!²⁰⁸

(“Binafsha” she‘ri)

Ushbu she‘riy parchada “bahor” yashirin tarzda tasvirlangan bo‘lib, g‘oya, mazmun-mohiyat mavzuning aynan “bahor”ni ifodalab, unda esa “hijron” timsolini vasf etmoqda. Shoir she‘rlarining aksariyat qismida “hijron”, “og‘irlik”, “sog‘inch”, “baxt bahoridan judolik” singari mavzular bosh rollarda bo‘ladi. Faqat “sog‘inch”, “hijron” timsolida emas balki, Zulfiya uchun bahor — bu hayotning aylanish doirasi, insoniyatning abadiy umidi va madaniy merosning ko‘zgusi. Uning she‘rlari bahor orqali nafaqat tabiatni, balki inson ruhining o‘zgarish qudratini ham madh etadi. Bu ramz uning ijodini zamondoshlari va keyingi avlodlar uchun ham dolzarb qilib qo‘ygan.

MUNOZARA

Shoir Erkin Vohidov she‘riyatida bahor mavzusi uning ijodining eng yorqin va ramziy qatlamlaridan birini tashkil etadi. Bahor nafaqat tabiatning uyg‘onish davri, balki insoniy his-tuyg‘ular, madaniy meros, falsafiy tafakkur va hatto ijtimoiy-siyosiy masalalarning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, Erkin Vohidov bahorni O‘zbekistonning an‘anaviy madaniyati, xususan, Navruz bayrami bilan bog‘lab, uni milliy ruh va tarix ramzi sifatida ko‘taradi. Quyidagi “O‘lkamda bahor” she‘rida ham ayni yoshlik, yorug‘lik, milliylik, jo‘shqinlik, mamnunlikni aks ettiradi.

Bahorda yoshlikning totli bo‘yi bor,
Bahor erk singari yorug‘ va zangdor.
Yosh yurtim bahordek bo‘lsin beg‘ubor,
O‘lkamda bahordir, o‘lkamda bahor...²⁰⁹

(“O‘lkamda bahor” she‘ridan)

²⁰⁸ Zulfiya. “Bahor keldi, seni so‘roqlab”, Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2013, -B.42

²⁰⁹ Erkin Vohidov Saylanma ikkinchi jild, She‘r dunyosi Toshkent “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati – 2001, 87.B

Erkin Vohidov ushbu she‘ridagi “bahor” mavzusi uning ijodining falsafiy, madaniy va lirik qirralarini uyg‘unlashtiradi. Uning bahori nafaqat fasl, balki O‘zbek xalqining ruhiy qudrati, tarixiy xotirasidan keyingi istiqboliga bo‘lgan ishonchini beg‘ubor bahor kabi tasvirlaydi. Vohidov she‘rlari o‘quvchiga nafaqat tabiat go‘zalligini, balki hayotning abadiy qadriyatlarini ham eslatib turishi bilan ahamiyatlidir.

Vohidov bahorni nafaqat tabiat hodisasi, balki hayotning davriyligi, vaqt va o‘lim-tiriklik haqida falsafiy mulohazalar uchun vosita sifatida ishlatadi. Quyida keltiriladigan she‘riy parchasida ham falsafiylikni tarannum etadi.

Ishonishib qishning iliq kuniga,
Ba‘zi bir daraxtlar kurtak yozibdi.
Ayyor qish o‘ranib bahor to‘niga
Soddalar ostiga chuqur qazibdi.
Bardoshni yo‘qotmay kutinglar bir pas,
Bahor ham keladi, bahor aldamas...²¹⁰

(“Bahor ham keladi, bahor aldamas” she‘ridan)

Sovet davrida yozgan Vohidov she‘rlarida bahor ba‘zan erkinlik, ozodlik va ijtimoiy o‘zgarish ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Guvohi bo‘lganimizdek, yuqorida aynan bahor kelishi – mustaqillik, istiqbolli kunlar yaqin ekanligini, bardoshni yo‘qotmay birdamlikda bo‘lishlikka chaqiradi.

Shukrullo ijodida ham bahor ramzining tarannum etilishiga nazar solsak:

Xursand uyg‘onardim bahor chog‘lari,
Tongdan bo‘lar edi ko‘zim osmonda.
Shamol silkitganda terak shoxlarin,
Quvonchimning cheki bo‘lmasdi manda.
Yangi kelin kabi tomda chuchmoma,
Yal-yal yonar edi lolaqizg‘aldoq.²¹¹

(“Varraklar” she‘ridan)

Shukrullo (Shukrullo Rahimov) o‘zbek adabiyotining taniqli shoirlaridan bo‘lib, uning she‘rlarida tabiat, sevgi, va milliy tuyg‘ular keng o‘rin tutadi. Keltirilgan she‘riy parchani tahlil qilar ekanmiz, shoir bahorni naqadar ulug‘lagani, sevganini his etishimiz mumkin. Ayni bahor faslida yangi hayot, yangi umidlar, yangi maqsadlar ila tongni ham o‘zgacha

²¹⁰ Erkin Vohidov Saylanma ikkinchi jild, She‘r dunyosi Toshkent “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati – 2001, 163.B

²¹¹Shukrullo. She‘rlar “Xalq dardini joyladim dilga” Toshkent-1988. 214.B

qarshilashi, boshqa shoirlar ijodidan tuban mazmun-mohiyati bilan farqlanishi timsollarni o‘rinli qo‘llay olgani bilan yuqori pog‘onada darajalanadi.

Bahor ramzi keng tushunchalarni anglatganligi bois, har bir shoir o‘z dunyoqarashi, ijod yo‘li bo‘yicha o‘z asarlarida keng qamrovli ma‘noliligini ifodalaydi.

O, u qanday fusunkor!
Nur bilan to‘lgan butun.
Gullari chaman-chaman,
Men ularni ichaman:
Ko‘nglimda yashnar bahor...
Nur bilan to‘lgan butun.²¹²

(“Bog‘im” she‘ridan)

Usmon Nosir she‘riyatida “bahor” ramzi juda ko‘p qirrali ma‘nolar va madaniy-majoziy qadriyatlar bilan ifodalanadi. Uning ijodida bahor tabiatning yangilanishi, hayotning davomiyligi, milliy ruh, umid o‘chog‘ining yonib turishi va insoniy hislarning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqorida keltirib o‘tilgan misralarda ham bahor tabiatning yangilanishi orqali inson qalbiga ham shodlik va umid olib kelishini tasvirlaydi.

Mumtoz adabiyot namunalarida:

Ne	kun	o'lg'ayki,	nigorum	kelgay,
Bog'i umrumda bahorum kelgay.				
Umrbog'ida		bahor		uldurkim,
Sarvqad lolauzorum kelgay. ²¹³				

(“Kelgay” g‘azalidan)

Alisher Navoiy qalamiga mansub g‘azalda “bahor” ilohiy muhabbatning timsoli, insonning ma‘rifatga intilishi va tabiat bilan uyg‘unlik ramzi sifatida ko‘tarilgan. Navoiy she‘rlarida bahor go‘zallik, adolat va axloqiy poklik bilan bog‘lanib, inson kamolotining metaforasiga aylanganligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek she‘riyatida “bahor” ramzi bir emas, bir qancha tagma‘nolarni anglatar ekan. Avvalo mumtoz adabiyot (A.Navoiy) ildizlardan tortib zamonaviy badiiy tafakkurgacha uzluksiz rivojlangan murakkab va rang-barang mavzudir. Bahor bu yerda nafaqat tabiatning qayta tug‘ilishi, balki inson ruhiyati, ijtimoiy hayot va ma‘naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. XX asr boshlari (Cho‘lpon) bahorni milliy ozodlik, xalq ongining uyg‘onishi va istiqloлга intilish bilan she‘rga soladi. Zamonaviy she‘riyatda esa (Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla

²¹² Usmon Nosir, She‘rlar, Toshkent. “O‘zbek adabiyoti va san‘ati” nashriyoti-2004.96.B

²¹³ <https://mum-toz.narod.ru/navoiy.htm>

Oripov, Zulfiya, Shukrullo) bahor mavzusi insonning ichki izlanishlari, vatan mehri, tarixiy xotira va kelajakka ishonch bilan uyg‘unlashishi, bahor yerli ranglar, an’analar va zamonaviylik nayzasi ostida yangi ma’nolar kasb etishiga guvoh bo‘ldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cho‘lpon, “Buloqlar qo‘ynida”, Toshkent, Cho‘lpon nomidagi ijodiy-matbaa uyi – 2007
2. Abdulla Oripov, Tanlangan asarlar 1-jild, Toshkent- Adabiyot va san’at nashriyoti – 2000
3. Zulfiya. “Bahor keldi, seni so‘roqlab”, Toshkent-“Yangi asr avlodi”, 2013
4. Erkin Vohidov Saylanma ikkinchi jild, She’r dunyosi Toshkent “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati – 2001
5. Usmon Nosir, She’rlar, Toshkent. “O‘zbek adabiyoti va san’ati” nashriyoti-2004
6. Shukrullo. She’rlar “Xalq dardini joyladim dilga” Toshkent-1988. 214.B